

THE 17 GOALS- SUSTAINABLE DEVELOPMENT GOALS

MAQSADLARI ASOSIDA JINOYAT PROTSESSUAL HUQUQIDA DALILLAR
VA SUN'iy INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH
MASALALARI

Ne`matilloeva Sitorabonu Safar qizi

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Xalqaro huquq fakulteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada SDG 16- "Tinchlik, adolat va samarali institutlar" maqsadi asosida O'zbekiston Respublikasi jinoyat protsessual huquqida dalillar va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish masalalarini tahlil qilish yuzasidan ilmiy tahlil qilinadi. Maqolada jinoyat protsessual huquqida dalillar tushunchasi, ulardan foydalanish va dalillarni guruhlashdagi e'tibor qaratilishi muhim bo'lgan jihatlar, shuningdek, tergovda dalillarni aniqlashda va jinoyatlarni tezkor fosh qilishda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning o'rni ko'rib chiqiladi. Shuningdek, AI dan jinoyat huquqi sohasida foydalanishning qay darajada o'rinli ekanligi ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari O'zbekiston huquq tizimini tizimlashtirish va liberallashtirish bilan bir qatorda olib borilayotgan raqamlashtirish bosqichlaridagi islohotlar va kamchiliklar tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *SDG 16, jinoyat protsessual huquqi, dalillar, sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalar, inson huquqlari, elektron dalillar, xorijiy tajriba, AI texnologiyalari.*

Abstract: *This article provides a scientific analysis of the use of evidence and artificial intelligence technologies in the criminal procedural law of the Republic of Uzbekistan based on the SDG 16 goal of "Peace, Justice and Effective Institutions". The article examines the concept of evidence in criminal procedural law, the aspects that are important to consider when using them and grouping evidence, as well as the role of digital technologies and artificial intelligence in identifying evidence in investigations and quickly solving crimes. The extent to which AI can be used in the field of criminal law is also considered. In addition, the reforms and shortcomings of the digitalization stages being carried out in Uzbekistan, along with the systematization and liberalization of the legal system, are analyzed.*

Keywords: *SDG 16, criminal procedural law, evidence, artificial intelligence, digital technologies, human rights, electronic evidence, foreign experience, AI technologies.*

Kirish. Bugungi kunda davlat huquq tizimida bir qancha islohotlar amalga oshirilmoqda. Ulardan biri huquq tizimini rivojlantirish, tizimlashtirish va raqamlashtirish jarayonida 2015-yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan "2030-yilga mo'ljallangan barqaror rivojlanish kun tartibi" xalqaro hamjamiyatining 17ta maqsadi asosida amalga oshirilayotgan harakatlar muhim o'rin tutadi. Umumiy qilib aytganda, ushbu 17 maqsadning vazifasi dunyoda tinchlik o'rnatish, ocharchilik va ta'lim kabi sohalaridagi muammolarni bartaraf etish va dunyoni yaxshi tomonga o'zgartirish hisoblanadi. Shular bilan bir qatorda, ushbu tizim bilan

hamnafas hamda asosida o'zbekistonda ham bir qancha o'zgartirilishlar amalga oshirilmoqda.

Jinoyat protsessual huquqi davlat huquq tizimining ajralmas bo'lagi hisoblanadi. Ushbu jarayon keng harakatlarni qamrab oladi. Jinoyatlarni aniqlash, jinoyatchilarni fosh etish, tergovga qadar tekshiruv, dastlabki tekshiruv, tergov, surishtiruv va jazo tayinlash kabi bir qancha protsesslarni amalga oshirish jarayonlari jinoyat protsessual huquqi tomonidan beriladigan yo'l-yo'riqlar orqali amalga oshiriladi.

Davlatda huquq tizimida, ayniqsa, protsessual tizimida olib borilgan islohotlarni SDG 16 maqsadi asosida tahlil qilinadigan bo'lsa, ushbu tizim shaffofligi va aniqligini oshirish, huquqiy shaxsiyatni kafolatlash hamda fuqarolarning huquqlarini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, bugungi kunda rivojlanib borayotgan sun'iy intellektning jinoyat protsessual jarayonlarda, dalillar masalasida ta'siri haqida fikr yuritiladigan bo'lsa, ushbu jarayon protsessual jarayonlarni amalga oshiruvchi davlat organi xodimlari uchun bir muncha qiyinchilik tug'dirishi bilan bir qatorda ularning ishini yengillashtirishga xizmat qiladi.

Asosiy qism: SDG-16 ning maqsadi dunyo kesimida jinoyatlarni kamaytirish, tinchlik va adolatni ta'minlashni nazarda tutadi. Tahlillarga ko'ra, ushbu barqaror rivojlanish maqsadlari asosida jinoyatchilik soni bir muncha kamaygan. Jinoyat protsessual qonunchiligining asosiy tamoyillari — aybsizlik prezumpsiyasi, himoya huquqi, sudning mustaqilligi — SDG-16 ning amalga oshirilishida muhim mezonlar hisoblanadi. SDG 16- maqsadiga kiritilgan ushbu talablarni ijro qilishda jinoyat protsessual huquqi muhim rol o'ynaydi.

Ushbu sohadadagi o'zgarishlar faqat 16- maqsadda emas balki, boshqalarida ham o'z aksini topmoqda. Bunga misol qilib:

SDG 5-maqsad asosida jinoyat protsesslarida vujudga keladigan gender tengligi buzilishini oldini olishga xizmat qiladi. Ya'ni jinsiy zo'ravonlikka oid ishlarda zo'ravonlikka uchragan ayol ko'rsatmalarini tasdiqlovchi dalil sifatida raqamli forenzika, smartfonlar va kameralar xizmat qiladi. Jinsiy tenglikni ta'minlash maqsadida so'roq jarayonida ayolning ruhiy holatini hisobga olgan holda maxsus guruh shakllantiriladi.

SDG -17 asosida hamkorlik ya'ni transchegaraviy raqamli dalillar almashinuvini osonlashtirish jinoyat protsessual harakatlarda jinoyatlarni tezroq va osonroq topishda muhim rol o'ynaydi. Hozirda an'anaviy MLAT (Huquqiy yordam to'g'risidagi shartnoma) jarayoni oylab vaqt oladi. BRM-17 doirasida "Cloud evidence" (bulutli dalillar) uchun to'g'ridan-to'g'ri (prokuratura-provayder) aloqa kanallarini o'rnatish va elektron dalillar bo'yicha "Budapesht konvensiyasi"ga a'zo bo'lish muhim. Muhim va asosiy jihat mamlakatlar orasida ma'lumotlar orasida ma'lumot almashinuvini yaxshilash orqali jinoyatchilikka qarshi kurashish mumkin bo'ladi.

SDG-9 maqsadi asosida jinoyat protsessual harakatlarida texnikalarni qo'llash. Bu nafaqat yangi uskunalarni sotib olish, balki "Big Data" tahlili va bulutli hisoblash tizimlarini tergovga joriy etishdir. Masalan, DNK tahlilining avtomatlashtirilgan tizimlari

yoki blokcheyn texnologiyasi orqali dalillar zanjiri (chain of custody) daxlsizligini ta'minlash.

SDG -10 maqsadga ko'ra tengsizlikni kamaytirish maqsadida ma'lum bir etnik guruhlarni adashitirib yubormaslik uchun sun'iy intellektning urni yuqori. "Algorithmic Bias" (Algoritmik tarafkashlik) muammosi SI tizimlari o'tmishdagi noto'g'ri ma'lumotlar asosida o'qitilganda yuzaga keladi. Masalan, ayrim hududlarda jinoyatchilik yuqori deb ko'rsatilsa, tizim o'sha yerda yashovchi barcha insonlarni "xavfli" deb tasniflashi mumkin. Buni oldini olish uchun "AI Ethics" auditidan o'tgan ochiq manbali algoritmlardan foydalanish tavsiya etiladi

Bundan tashqari tan olish kerakki, Jinoyat protsessual jarayonlarini amalga oshirishda sun'iy intellektning ishtiroki ishni ko'rishni bir tarafdin yengillashtirib, imkoniyatlar yaratasa, bir tomondan dalillarni soxtalashtirish va ularning haqiqiyiligini aniqlashtirishga to'sqinliklar yaratmoqda. Ya'ni raqamli jinoyatchilik misilsiz ravishda murakkablashib bormoqda. Masalan, AI texnologiyalari huquqni muhofaza qiluvchi organlarda katta data almashinuviga xizmat qiladi. Ba'zi hollarda ushbu ma'lumotlar kiberjinoyatlar asosida olinishi yoki tarqalishi mumkin. Shuningdek, ijobiy jihatlari esa jinoyat sodir etilgan joylardagi kamera tasvirlari orqali fuqarolarning yuz qiyofalarini aniqlash va jinoyatni ochish bir qancha yengillashadi. Shuningdek, sudlarda va boshqa organlarda ko'rilayotgan ishlarni va audioyozuvlarni o'girish orqali sudya va prokurorlarning ishini taxminan 8-10 baravar yengillashtirishi va vaqtini tejashi ko'rinadi.

Shuningdek, kiberjinoyatlar sodir etilganda topish osonlashadi. Masalan, bank tranzaksiyalaridagi murakkab zanjirli pul aylanmalarini AI inson sezmaydigan bog'liqliklar orqali aniqlaydi.

Xulosa : Xulosa qilib aytganda, bugunki rivojlanib borayotgan davrda AI va dalillar masalasi bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lib qolmoqda. Shuningdek, O'zbekiston hududida ham ushbu masalalardagi muammolar bo'yicha ishchi guruhlar shakllantirilib SDG maqsadlarini amalga oshirgan holda hal etish vazifalari yuklatilmoqda. Va ayni shu asosida mamlakat huquq tizimi protsessual harakatlardagi ishlar biroz yengillashganini payqash qiyinmas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
3. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. "Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development." 2015.
4. United Nations Sustainable Development Goals — SDG 16: Peace, Justice and Strong Institutions.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sud-huquq tizimini raqamlashtirish bo'yicha farmon va qarorlari.
6. Budapesht konvensiyasi (Convention on Cybercrime), 2001.
7. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston strategiyasi." Toshkent, 2021.

8. Rustambayev M.X. Jinoyat protsessual huquqi. Darslik. Toshkent.

9. A. Yakubov. Jinoyat protsessida dalillar nazariyasi. Toshkent.

